

MAFKURANING TARIXIY JARAYONLARGA TA'SIRI: FALSAFIY- METODOLOGIK TAHLIL

Hamidova Sadoqat Mirsoli qizi

University of Business and Science

Tarix yo'nalishi magistranti

xamidovasadoqat236@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20562971>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mafkura tushunchasining falsafiy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Mafkuraning tarixiy jarayonlarga ta'siri, uning tarixshunoslikdagi o'рни va zamonaviy metodologik yondashuvlar nuqtai nazaridan ahamiyati ko'rib chiqiladi. K. Marks, K. Mannxaym, L. Altusser va boshqa olimlarning mafkura nazariyalari, shuningdek O'zbekiston tarixshunosligi misolida mafkuraviy paradigmalarning evolyutsiyasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: mafkura, tarix falsafasi, metodologiya, tarixshunoslik, mafkuraviy paradigma, tarixiy jarayon, siyosiy mafkura, ijtimoiy ong

Аннотация: В данной статье анализируются философско-методологические основы понятия идеологии. Рассматривается влияние идеологии на исторические процессы, её место в историографии и значение с точки зрения современных методологических подходов. Изучаются теории идеологии К. Маркса, К. Мангейма, Л. Альтюссера, а также эволюция идеологических парадигм на примере историографии Узбекистана.

Ключевые слова: идеология, философия истории, методология, историография, идеологическая парадигма, исторический процесс, политическая идеология, общественное сознание

Abstract: This article analyzes the philosophical and methodological foundations of the concept of ideology. The influence of ideology on historical processes, its place in historiography, and its significance from the perspective of modern methodological approaches are examined. The ideological theories of K.

Marx, K. Mannxaym, L. Altusser and other scholars, as well as the evolution of ideological paradigms in Uzbekistan's historiography, are studied.

Keywords: *ideology, philosophy of history, methodology, historiography, ideological paradigm, historical process, political ideology, social consciousness*

Tarix falsafasi va metodologiyasining dolzarb muammolaridan biri – mafkuraning tarixiy bilish jarayoniga ta'siri masalasidir. Mafkura insoniyat jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq hodisa bo'lib, u nafaqat siyosiy hayotda, balki ilmiy tadqiqotlar, xususan tarixiy tadqiqotlarda ham muhim o'rin tutadi [1]. Tarix fanining obyektivligi va haqqoniyligi ko'p jihatdan tadqiqotchi yoki jamiyat ushlab turgan mafkuraviy pozitsiyaga bog'liqdir.

XX asrda mafkura tushunchasi falsafa, sotsiologiya va tarix fanlarining kesishmasida keng muhokama etila boshladi. K. Marks, K. Mannxaym, A. Gramshi, L. Altusser kabi mutafakkirlar mafkuraning ijtimoiy-tarixiy funksiyalarini turlicha talqin qildilar. Ushbu maqolada ushbu nazariyalar tahlil qilinib, mafkuraning tarix fanidagi metodologik ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Maqolaning maqsadi – mafkura tushunchasining falsafiy asoslarini ochib berish va uning tarixiy tadqiqotlardagi metodologik rolini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: mafkura nazariyalarining qiyosiy tahlilini o'tkazish; tarixiy jarayonlarni talqin qilishda mafkuraviy omilning ta'sirini ko'rsatish; O'zbekiston tarixshunosligi misolida mafkuraviy paradigmlar evolyutsiyasini o'rganish.

“Mafkura” (ideologiya) atamasi birinchi marta fransuz faylasufi Antuan Desti de Trasi tomonidan XVIII asrning oxirida g'oyalar haqidagi fan sifatida kiritilgan [2]. Keyinchalik bu tushuncha turlicha mazmunga ega bo'la boshladi. K. Marks va F. Engels "Nemis mafkurasi" asarida mafkurani hukmron sinfning manfaatlarini ifodalovchi va ularga xizmat qiluvchi g'oyalar to'plami sifatida tavsiflaydi. Ularga ko'ra, “har bir davr hukmron sinfi hukmron g'oyalar muallifiga aylanadi”.

K. Mannxaymning “Mafkura va utopiya” (1929) asarida esa mafkura tushunchasi kengaytirildi. Mannxaym mafkurani faqat sinfiy tuzumni qo'llash

quroliga aylantirib qo'ymay, balki har qanday ijtimoiy guruhning o'z mavqeini qo'llash uchun shakllantirgan g'oyaviy tizimi sifatida ko'rdi [3]. Bu yondashuv mafkura tushunchasini neytrallashtirdi va uni keng metodologik vosita sifatida qo'llash imkonini berdi. L. Altusserning "Mafkuraviy davlat apparatlari" (1970) asarida mafkura yanada chuqurroq tahlil qilindi. Altusser mafkurani shaxsni ijtimoiy tizim ichida "subyektga" aylantiruvchi mexanizm sifatida ko'rdi. Bu nazariya tarix fanida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u tarixiy bilimning o'zi qanday qilib mafkuraviy jihatdan shakllanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Mafkuraning tarixiy jarayonlarga ta'siri bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, mafkura tarixiy voqelikni talqin qilish va tushuntirish uchun ma'lum bir "ko'zoynak" vazifasini o'taydi. Tarixchi doimo muayyan mafkuraviy muhit ta'sirida ijod qiladi va bu uning tadqiqot ob'ektini tanlashiga, manbalarga yondashuviga va xulosalar chiqarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4]. Ikkinchidan, mafkura tarixiy xotirani shakllantiradi va saqlaydi. Fransuz sotsiologi Moris Xalbvaks "jamoaviy xotira" nazariyasida jamiyatning o'z o'tmishini eslab qolishi va talqin qilishi bevosita ijtimoiy-mafkuraviy omillarga bog'liqligini asoslab berdi [5]. Natijada turli jamiyatlar bir xil tarixiy voqealarni o'z mafkuraviy prizmasi orqali farqli tarzda talqin qilishi mumkin. Uchinchidan, tarixiy faktlarni tanlash va ularga baho berish ham mafkuraviy jihatdan belgilanadi. Britaniyalik tarixshunos E.X. Karr ta'kidlaganidek, "tarixchi va tarixiy fakt bir-birini taqozo etadi; tarixchisiz fakt o'lik, befoyda; faktlarsiz tarixchi ildizlari yo'q, benasldir" [6]. Bu fikr tarixiy tadqiqotdagi subyektiv, jumladan mafkuraviy omilning muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston tarixshunosligi misolida mafkuraviy paradigmalarning o'zgarishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Sovet davri tarixshunosligida markscha-lenincha mafkura ustuvor bo'lib, tarix sinf kurashi prizmasidan ko'rildi [7]. Bu davrda O'rta Osiyo tarixini yoritishda rus imperiyachiligining "sivilizatorlik missiyasi" konsepsiyasi va sovet internatsionalizmi g'oyalari hukmron edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach (1991), milliy istiqlol mafkurasi tarixshunoslikka yangi paradigma olib kirdi. Birinchi Prezident I.A. Karimovning

“Tarixiy xotira” konsepsiyasi asosida milliy qahramon va buyuk ajdodlar – Amir Temur, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi shaxslarning tarixiy roli qayta baholandi [11]. Bu o‘zgarish nafaqat tarixiy faktlarning qayta talqin qilinishini, balki tarix metodologiyasining ham mafkuraviy transformatsiyasini anglatadi.

Zamonaviy O‘zbekiston tarixshunosligi “Yangi O‘zbekiston” tarixiy mafkurasi asosida rivojlanmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida tarix fani oldiga milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tarbiyasi va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga hizmat qilish vazifalari qo‘yilgan [8]. Bu esa tarixiy metodologiya va mafkura o‘rtasidagi munosabatning davom etayotgan dinamikasini ko‘rsatadi. Zamonaviy tarix falsafasida mafkura muammosiga poststrukturalizm va diskurs tahlili metodlari orqali yondashilmoqda. M. Fuko‘ning “bilim-hokimiyat” konsepsiyasi asosida tarixiy bilimning o‘zi muayyan hokimiyat munosabatlari va mafkuraviy tuzilmalar mahsuli ekanligi ko‘rsatildi. Bu yondashuv tarixchilarni o‘z tadqiqotlarida mafkuraviy pozitsiyalarini refleksiya qilishga undaydi.

Zamonaviy metodologiyada “tarixiy ob'ektivlik” va “mafkuraviy ta’sir” o‘rtasidagi muvozanat masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. T. Neygel, P. Novick va boshqa metodologlar tarixiy tadqiqotda to‘liq ob'ektivlikka erishib bo‘lmasligi, ammo mafkuraviy ta’sirni minimallashtirish uchun aniq metodologik tamoyillar–manbalarni tanqidiy ko‘rib chiqish, ko‘p tomonlama tahlil va o‘z-o‘zini nazorat qilish–zarurligini ta’kidlaydi [9].

XULOSA. Yuqorida bayon etilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, mafkura tushunchasi falsafiy-metodologik jihatdan murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u tarixiy jarayonlarni ham shakllantirishda, ham talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi. K. Marks, K. Mannxaym, L. Altusser va M. Fuko nazariyalari mafkuraning turli funksional tomonlarini yoritadi.

Ikkinchidan, tarixiy tadqiqotlar hech qachon mafkuraviy omildan mutlaqo xoli bo‘lmaydi. Tadqiqotchining dunyoqarashi, u mansub bo‘lgan jamiyatning

mafkurasi va mavjud hokimiyat munosabatlari tarixiy bilimning mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, O'zbekiston tarixshunosligi misolida ko'ringanidek, mafkuraviy paradigmalarning o'zgarishi tarixiy tadqiqotlarning yo'nalishini, usullarini va natijalarini tubdan o'zgartirishi mumkin. Shu sababli zamonaviy tarixchi mafkuraviy ta'sirni anglagan holda, uni hisobga oluvchi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur.

To'rtinchidan, zamonaviy tarix falsafasi mafkura va ob'ektivlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun aniq metodologik usullar–manba tanqidi, qiyosiy tahlil, interdistsiplinar yondashuv va reflektiv metodologiyani taklif etmoqda. Ushbu usullarni keng qo'llash O'zbekiston tarixshunosligi rivojiga muhim hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altusser L. Ideology and Ideological State Apparatuses. — London: New Left Review, 1970. — 213 p.
2. Kennedy E. "Ideology" from Destutt de Tracy to Marx // Journal of the History of Ideas. — 1979. — Vol. 40, № 3. — P. 353–368.
3. Mannxaym K. Essays on the Sociology of Knowledge. — London: Routledge & Kegan Paul, 1952. — 327 p.
4. White H. Metahistory: The Historical Imagination in Nineteenth-Century Europe. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1973. — 448 p.
5. Halbwachs M. On Collective Memory / Trans. by L. Coser. — Chicago: University of Chicago Press, 1992. — 244 p.
6. Carr E.H. What is History? — London: Penguin Books, 1990. — 187 p.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. — Toshkent: O'zbekiston, 1992. — 78 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030 strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni. — Toshkent, 2023.



9. Novick P. That Noble Dream: The "Objectivity Question" and the American Historical Profession. — Cambridge: Cambridge University Press, 1988. — 648 p.